

**BOSHLANG'ICH SINF ALIFBE DARSЛИGIDA FITONIMLARNING
QO'LLANILISHI**

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФИТОНИМОВ В УЧЕБНИКЕ АЗБУКИ НАЧАЛЬНОЙ
ШКОЛЫ**

THE USE OF PHYTONYMS IN A PRIMARY SCHOOL ALPHABET TEXTBOOK

Abduvaliyeva Nodira Alisherovna

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi

Farg'ona davlat universiteti 1-kurs magistranti

Абдувалиева Нодира Алишеровна

*Ферганский государственный университет, доктор философии по
филологическим наукам (PhD)*

Моминджонова, дочь Гульноракана Абдупатто

*Студентка 1 курса аспирантуры Ферганского государственного
университета.*

Abduvaliyeva Nodira Alisherovna

Fergana State University, Doctor of Philosophy in Philology (PhD)

Mominjonova daughter of Gulnorakhan Abdupatto

Is a 1st-year graduate student of Fergana State University

Annotatsiya: *Tabiat va inson o'rtasidagi aloqa qadimdan, insoniyat vujudga kelganidan mavjud bo'lib, inson hayoti, turmush tarzi to'g'ridan to'g'ri tabiatga bog'liq. O'simliklar oziq-ovqat manbayi, toza havo zaxirasi, uy-joy uchun materiallar va dori-darmon beruvchi vositadir. Atrof-muhitga doimo ijobiy ta'sir ko'rsatish, undan to'g'ri foydalanish, zarar yetkazmaslik, turli ekologik muammolarni oldini olish yuzasidan butun jamiyat bilim olishga intiladi va yosh avlodlarga ham o'rgatadi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf alifbe darsligida berilgan fitonimlar(o'simliklar), ularning ahamiyati, qo'llanish usullari, rivojlantiruvchi maqsadlari haqida fikrlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Alifbe darsligi, fitonimlar, o'qish va yozish, harflar, o'xshashlik, nom, she'r, hikoya, tabiat, daraxt, savodxonlik, metod, yo'naliш.*

Аннотация: Взаимоотношения природы и человека существуют с древнейших времен, с зарождения человечества, и жизнь и образ жизни человека находятся в прямой зависимости от природы. Растения — это источник пищи, источник чистого воздуха, материалов для жилья и средство обеспечения лекарствами. Все общество стремится получать знания и учит молодое поколение всегда положительно влиять на окружающую среду, правильно использовать ее, не наносить вреда, предотвращать различные экологические

проблемы. В данной статье изложены мысли о фитонимах (растениях), данных в учебнике азбуки начальной школы, их значении, способах применения и развивающих целях.

Ключевые слова: Учебник алфавита, фитонимы, чтение и письмо, буквы, аналогия, имя, стихотворение, рассказ, природа, дерево, грамотность, метод, направление.

Abstract: *The connection between nature and man has existed since ancient times, since the emergence of mankind, and human life and lifestyle are directly dependent on nature. Plants are a source of food, a reserve of clean air, materials for housing and a means of providing medicine. The whole society strives to gain knowledge and teaches the younger generation about how to always have a positive impact on the environment, use it properly, not to cause harm, and prevent various environmental problems. This article provides ideas about the phytonyms (plants) given in the elementary school alphabet textbook, their significance, methods of use, and developmental goals.*

Keywords: Alphabet textbook, phytonyms, reading and writing, letters, similarity, name, poem, story, nature, tree, literacy, method, direction

KIRISH

Boshlang'ich mактабда o'qitish elemental o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. „Alifbe” ga asoslangan holda qisqa vaqt ichida o'quvchilar o'qish va yozishga o'rgatiladi, ya'ni o'qish va yozish ko'nikmasini egallaydilar. O'qish va yozish malakasi biri ikkinchisining muvafaqqiyatl omalga oshishini ta'minlaydi. Shunday ekan, savod o'rgatish jarayonida bola juda ko'p o'qishi va yozishi kerak bo'ladi. Ular doimo birgalikda, bog'liq holda olib boriladi. Bolalar uchun bog'cha davridan mакtab davriga moslashishi biroz murakkablik tug'diradi. Shu sababli darsliklar ko'proq rasmlar va o'yinlar orqali beriladi. Alifbe kitobi ham tabiat bilan uyg'unlashgan holda fitonimlar rasmlari va nomlari bilan boyitilgan.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI

Bugungi kunda alifbe darsligi va fitonimlar tahlili ustida bir qancha olimlar, metodist va pedagoglar turli ilmiy ishlар olib borishgan hamda davom etib kelmoqda. 1. A. Avloniy – O'zbek tilini o'qitish metodikasiga asos solgan pedagog, "Alifbe" va ta'lif metodikasi haqida fikr bildirgan. G. Rahimov – Boshlang'ich ta'lif va o'qish-yozishni o'rgatish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan. H. Yo'ldoshev – O'zbek tilshunosligi va boshlang'ich sinf ta'lif metodikasi bo'yicha tadqiqotlar qilgan. M. Jo'rayev – Boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun o'qitish metodikalari bo'yicha ishlari bilan mashhur. M.Yuldasheva – O'qish va yozuv darsliklari tahlili bilan shug'ullangan.

Fitonimlar (o'simlik nomlari) bo'yicha tadqiqotlar asosan lingvistlar, etnobotaniklar va folklorshunoslar tomonidan olib borilgan. O'zbek tilshunosligida fitonimika bo'yicha quyidagi olimlarning ishlari e'tiborga loyiq:

Lingvistlar va leksikograflar: T. Qoryog'diyev – O'zbek tilida fitonimlarning lug'at tarkibini va semantik xususiyatlarini o'rgangan. A. Madvaliyev – O'zbek tilidagi fitonimlarning etimologik va dialektal xususiyatlarini tahlil qilgan. R. Rasulov –

Fitonimlarning kelib chiqishi va xalq og'zaki ijodidagi o'rni haqida tadqiqotlar olib borgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Fitonimika va fitonim tushunchasi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yod tushuncha bo'lib, aynan shunday atama ko'rinishida qo'llanilmaydi, balki uning ma'lum tur va guruhlari xalqona va sodda tilda ifodalanadi. Fitonimika tarixiga nazar soladigan bo'lsak unga oid dolzarb muammolardan biri lug'at tadqiqoti - bu "fitonim" semantik kengaytmasining ta'rifi hisoblanadi. Chunki umumiy qabul qilingan ma'no va mazmun, ta'rif kam yoki deyarli yo'q. Tilshunoslikda keng qo'llanilishiga qaramay, ushbu atamaning talqini ommalashmagan. Fitonimlar botanika birliklari sifatida aniqlanadi. Nomenklatura va o'simliklarning ilmiy nomlash birliklari bo'lib, leksik guruhga mansub so'zlar o'rganishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan muhim xususiyatlari mavjud. Tilshunos olimlarning o'simlik dunyosiga alohida e'tibor qaratishlariga sabab shundaki, o'simliklar inson hayotida asosiy o'rnlardan birini egallaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Fitonimlar – o'simlik nomlarini ifodalovchi so'zlar bo'lib, ular boshlang'ich sinflar alifbe darsliklarida turli maqsadlarda ishlatiladi. Quyida fitonimlarning qo'llanishiga oid asosiy yo'nalichlarni keltirib o'tamiz:

1. Harflarni o'rganishda namunaviy so'z va tashqi o'xshashligi sifatida: Alifbe darsliklarida harflarni o'rgatish jarayonida bolalarga shu harfga tegishli so'zlar yoki fitonimlarning tashqi ko'rinishiga o'xshash rasmlar misol tariqasida beriladi. Fitonimlar ham bunday so'zlar sirasiga kiradi. Masalan: O harfi – Olma, G harfi – Gilos, T harfi – Tut, B harfi – Bodom. Bola o'qish paytida bitta harfni ko'radi, rasmlarni eslaydi, esga tushirgach uni aytishga oshiqadi. O'qituvchi faqat darsliklarda berilgan ma'lumotlar bilan cheklanmasdan mavzuga doir qo'shimcha kartochkalar, harflarga o'xshash turli shakllar, narsa buyumlarni ko'rsatishi, nomini to'g'ri talaffuz qildirishi, ushlatib ko'rishi, turli topshiriqlar berishi va to'g'ri yozdirishi harflarni yanada to'liq eslab qolishga yordam beradi.



qiling.

Baliq suvda suzadi,
Go'shti maza bo'ladi.
Bodring, banan so'zları
"B" harfidan boshlanadi.

bu	bo'l	bi-no	bi-lim	bu-lut
ba	bol	bo-la	bi-lan	bo-dom
ob	bob	bu-ta	bi-lak	bom-dod

[h] tovushi. H h harfi 48

hukm
hu-nar | hu-quq
hol-va

ha-vo | ha-yot | hik-mat | hi-so-bot
↓ o | o | o | o-o-o-o-o

Asli juda ko'p bo'lar,
Daraxtlarda "Y" harfi.
Ham cho'zmani eslatar,
Ayri shox – shoxlar ayri.

yil	yon	yuk	yel-ka	yo'-lak
yel	yod	yoy	yet-ti	ye-lim
yo'l	yem	yum	ya-na	ya-kun

Red and white boxes for coloring.

Oltin tarvuz

QR code.

Yuqorida berilgan y harfidagi rasm y harfi bilan boshlanmaydi, lekin ko'rinish jihatdan o'xshagini sababli ayri berilgan. Bu orqali bolalar nafaqat harflarni, balki turli o'simlik nomlarini ham yodda saqlaydi.

2. O'qish va tushunishni rivojlantirish uchun

Darsliklarda o'simliklarga oid she'rlar, hikoyalar va matnlar uchraydi. Masalan, "Olma sarg'aydi", "Gul ekdis", "Uzum yetildi" kabi matnlar orqali bolalar fitonimlarning ma'nosi va qo'llanilishini o'rganadi.

Gulzorda

Aziza gullari yoqtiradi. U onasi va akasi bilan birgalikda gulzorga atirgul va lola ekdi. Aziza gullarga o'z vaqtida suv quydi. Tez kunda gullar oq, qizil, sariq bo'lib gulladi. Aziza gullarni ko'rib quvondi. U o'z gullaridan onasiga guldasta yasadi.

Ipak qurti

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Uzumzorda ipak qurti va kapalak bor ekan. Kapalak qanotlari turli-tuman tovlankar. Uni kuzatib, ipak qurti kapalakka rosa █ qilibdi.

Ipak qurti ipak o'rayveribdi, o'rayveribdi. Bir kuni ertalab qarasa, endi u ipak qurti emas, kapalak ekan. Keyin u gulzor tomon qanot qoqib █ ketibdi.

3. Atrof-muhit haqida tushuncha berish

Bolalarga tabiat va o'simliklar haqidagi tushunchalarni shakllantirish uchun fitonimlardan foydalaniladi. Masalan, "Daraxtlar – tabiat bezagi", "Bog'dagi mevalar" kabi mavzularda o'quvchilar turli o'simliklar nomi va ularning foydasi haqida ma'lumot oladi. Bundan tashqari tabiat va inson o'zaro bog'liq ekanligi, tabiatni sevish va asrab avaylash, undagi o'simliklar, zonzotlarga mehr ko'rsatish ularni parvarish qilish haqida o'rganadilar



4. Savodxonlik va lug'at boyligini oshirish

O'quvchilar yangi so'zlarni o'rganish jarayonida fitonimlarni ham eslab qoladi. Masalan, "O'rik shirin meva" yoki "Gul hid taratadi" kabi gaplar orqali bolalar yangi so'zlar va ularning bog'lanishini o'zlashtiradi.

5. Estetik va badiiy tarbiya berish

Bolalar tabiat go'zalligini qadrlashi va unga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lishi uchun fitonimlar tasviriy matnlar, hikoyalar, rasmlar orqali taqdim etiladi. Masalan, "Bolalar gul ekdi" mavzusi bolalarga tabiatni sevish va parvarish qilish muhimligini o'rgatadi.

Lola fitonimi berilgan bo'lsin. Bola birinchi navbatta harflarni ko'rib, eslaydi va taniydi. Bu so'zda nechta harf ishtirok etganini, uning nechtasi unli nechtasi undoshligini, ularni to'g'ri talaffuz qilishni, berilgan so'z qanday ma'no anglatishini, bo'g'lnarga bo'lismeni, qo'shib o'qishni, harflarini tushirmsandan, almashtirmsandan o'qishni, so'zni to'g'ri yoza olishni idrok etishi kerak.

XULOSA


Alifbe darsliklarida fitonimlar savod o'rgatish, tabiat haqida bilim berish, so'z boyligini oshirish, estetik tarbiya berish va o'qish ko'nikmasini shakllantirish kabi maqsadlarda ishlataladi. Bu esa bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurini kengaytirishga va savodxonligini oshirishga yordam beradi. Fitonimlar boshlang'ich sinfda quyidagi omillar o'rganiladi:

- Fitonim nomlarini to'g'ri talaffuz qilish va yozish
- O'simliklarning nomini va mazmunini tushunish
- Fitonimlarni turlarga ajrata olish

- O'simlik va inson o'rtasidagi bog'liqlik
- Fitonimlarning rangi, shakli, hidi va turini farqlash
- O'simliklarni tabiatdagi o'rni va ularni parvarishlash

Ushbu tamoyillar avvalo o'quvchiga kichik bolalik paytidan oila a'zolari yoki bog'cha davridagi mashg'ulotlarda sodda tushunchalar shaklida o'rgatiladi. Boshlang'ich davrda esa biz sanab o'tgan omillar asosida bosqichma bosqich amalga oshiriladi.

O'simliklar bilan insonlar ismlari o'rtasidagi o'xshashliklar tabiat va inson hayoti o'rtasidagi yaqin aloqani aks ettiradi. O'simliklarning go'zalligi, shifobaxshligi va ramziy ma'nolari tufayli ular ismlarda abadiylashgan. Bu aloqalar madaniyatlar va xalqlarning tabiiy muhit bilan uyg'un yashashini ko'rsatadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alifbe darsligi. 2023-yil
2. Madaliyeva Y., O'zbek tilida fitonimlarning leksik-semantik va tematik xususiyatlari//“PEDAGOGS”international research journal ISSN: 2181-4027_ SJIF: 4.995-www.pedagoglar.uz-Volume-23, Issue-1, December -202269
3. Murodova N., O'zbek tilida fitonimlar: BMI
4. Uz.m.wikipedia.org
5. Qosimova K, Matchonov S, G'ulomova X, Yo'ldosheva Sh, Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi.- Toshkent: O'qituvchi, 2009